

YASHIL

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEKNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI


2
0
2
4

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON
Iyun-iyul



Digital
Object
Identifier



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'ZR Tabiat resurslari vazirligi, O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

“ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI”

MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI





BUXORO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI BAHOLASH

Akramova Obida Qosimovna

Buxoro muhandoslik-texnologiya instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini baholashga qaratilgan. Viloyatning iqtisodiy salohiyati, mavjud resurslar, infratuzilma va hukumat siyosati tahlil qilinadi. Investitsiya imkoniyatlari, potensial tarmoqlar va risklar ko'rib chiqilib, viloyatning investitsion salohiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari investorlar uchun qiziqarli imkoniyatlarni aniqlash va investitsiya muhitini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik, baholash modeli, investitsion salohiyati, investitsion xavf, tarmoq investitsion salohiyati.

Abstract: This article aims to assess the investment attractiveness of Bukhara region. Economic potential of the region, available resources, infrastructure and government policies are analyzed. Investment opportunities, potential sectors and risks are considered, and recommendations are given to increase the investment potential of the region. The results of the research will help identify interesting opportunities for investors and improve the investment environment.

Key words: investment attractiveness, evaluation model, investment potential, investment risk, network investment potential.

Аннотация: Целью данной статьи является оценка инвестиционной привлекательности Бухарской области. Анализируются экономический потенциал региона, имеющиеся ресурсы, инфраструктура и государственная политика. Рассмотрены инвестиционные возможности, потенциальные отрасли и риски, даны рекомендации по повышению инвестиционного потенциала региона. Результаты исследования помогут выявить интересные возможности для инвесторов и улучшить инвестиционную среду.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, модель оценки, инвестиционный потенциал, инвестиционный риск, сетевой инвестиционный потенциал.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va jahonda o'z o'rnini topishga undash uchun ularning investitsiya jarayonlarini faollashtirish kerak. Hududlarning investitsiya jarayonlarini faollashtirish orqali xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Hududdagi imkoniyatlar investorlarning shartlariga javob berishi kerak. Investitsiya faoliyatini yaxshilashning ustuvor vazifalaridan biri potensial investorlarni topishdir. Investorlarga investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi to'g'risida ma'lumot berish muhim hisoblanadi.

Har qanday davlatning samarali rivojlanish sharti – xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng asosiy muhim vazifasi va tarkibiy qismlaridan biri investitsiyalarni jalb qilishdir. Investitsion jozibadorlik davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismidir, shuning uchun uni o'rganish va baholash katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Davlatning investitsion jozibadorligini shakllantirish yo'nalishlari asoslantirilgan va baholashning ustuvor yo'nalishlari ta'kidlangan, ular orasida hudud iqtisodiyotining investitsiya salohiyatini tahlil qilish va xavflarning ta'sirini aniqlash muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, hududlarning investitsiya imkoniyatlarini baholash masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Investor ma'lum bir hududda amalga oshiriladigan ma'lum bir investitsiya loyihasiga sarmoya kiritishi uchun hududning ko'rsatkichlari, tahlil qilish natijalari investor uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa investitsion jozibadorlikni baholashda eng muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda aksariyat moliyaviy ekspertlar va olimlar hududdagi barcha ko'rsatkichlarni hududning investitsion jozibadorligini shakllantiradigan yadro deb bilishadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya jozibadorligiga ta'sir qiluvchi omillar va investitsiya jozibadorligini baholash yondashuvlari bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan hamda investitsiya va investitsiya jozibadorligi tushunchalariga turlicha ta'rif berishgan.

Blankning fikriga ko'ra, investitsiya jozibadorligi – moliyaviy barqarorlik, rentabellik, aktivlarning likvidligi va aktivlar aylanmasi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar asosida korxonaning investitsiya jozibadorligini tahlil qilish hisoblanadi¹.

Investitsiya jozibadorligi darajasini baholash uchun biznesning miqdoriy va sifat xususiyatlarini o'z ichiga olishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar to'plamini ishlab chiqish va qo'llash kerakligi Aleksenko, Gress kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, nazariy jihatdan investitsiya jozibadorligi omillari, odatda, ikki toifaga bo'linadi:

- ichki – bevosita ta'sir qiluvchi omillar (tashkiliy, texnologik, resurs-xomashyo, mehnat, moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish, iste'molchi).

-tashqi – bilvosita ta'sir qiluvchi omillar (ular tabiiy-geografik, ekologik, huquqiy, siyosiy, qonunchilik, ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi)².

Mahalliy olimlardan professor B.Y. Xodiyev va professor Sh.Sh. Shodmonov investitsiyalarga quyidagicha ta'rif bergan: "Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir"³. Bunda asosiy e'tiborni ishlab chiqarishga qaratgan, ya'ni investitsiyalarni korxonalarning asosiy va aylanma kapitalini qayta tiklash va ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflar sifatida qaragan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida statistik, guruhlash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, analitik tahlil, iqtisodiy matematik usullardan foydalanildi. Ma'lumotlar tahlil qilinib, shahar(tuman)larning investitsion jozibadorligi kengroq, aniqroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolarni tezkorlik bilan aniqlash va muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi hamda mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy usullaridan biri bu hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishdir. Buning uchun hududlarning investitsion baholash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Manbalarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, hududlarning investitsion jozibadorligini baholashning barcha mavjud usullari respublika miqyosida o'rganilgan, aynan shahar hamda tumanlarning ta'sirini belgilovchi omillarni hisobga olmag'an.

Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligiga baho berish uchun uning shahar (tuman)larining barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlilini olib boramiz. Hududlarning investitsion jozibadorligini baholash modeli[1] asosida hisoblangan ko'rsatkichlar bosqichma-bosqich natijalari umumlashtirilib, tahlil qilinadi.

1-bosqichda [2] Buxoro viloyati investitsion salohiyatining umumiy ko'rsatkichlari quyidagi 1-formula asosida hisoblanadi

$$IS_h = \sqrt[n]{IS_1 * IS_2 * IS_3 * IS_4 * IS_5} \quad (1)$$

IS_h – hududning investitsion salohiyati

$IS_1 - IS_1$ – hududning tabiiy geografik salohiyati, $IS_2 - IS_2$ – hududning mehnat pesurslari salohiyati, $IS_3 - IS_3$ – hududning infatuzilma salohiyati, $IS_4 - IS_4$ – hududning investitsion faoliyat salohiyati, $IS_5 - IS_5$ – hududning tashqi iqtisodiy faoliyat salohiyati. Buxoro viloyati investitsion salohiyatining umumiy ko'rsatkichlari natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1 Бланк И. А. Основы инвестиционного менеджмента: В 2 т. – К., 2001.

2 Aleksenko I.I., Gres M. S. Uzagalnennya teoretiko-metodichnix pidxodiv do otsinki investitsiynoi privablivosti pidpriemstva// Yekonomika i suspilstvo. – 2017. Vipusk No 9. – S. 952-955. URL: http://www.economyandsociety.in.ua/journal/9_ukr/164.pdf


3 B. Y. Xodiyev, Sh. Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –2017-y. 45



1-jadval. Buxoro viloyati investitsion salohiyatining umumiy ko'rsatkichlari.

Shahar va tumanlar	(IS ₁)	(IS ₂)	(IS ₃)	(IS ₄)	(IS ₅)	IS _n
Buxoro sh.	0,29	2,79	6,36	1,39	0,33	1,18
Kogon sh.	0,11	0,55	3,87	0,26	0,10	0,36
tumanlar:						
Olot	1,01	0,84	3,94	0,54	0,02	0,51
Buxoro	1,52	1,42	4,15	0,70	0,08	0,87
Vobkent	2,16	1,40	3,40	0,37	0,06	0,75
G'ijduvon	1,31	2,44	4,29	1,54	0,08	1,12
Kogon	1,49	0,70	3,99	1,19	0,21	1,01
Qorako'l	0,94	1,33	3,23	0,46	0,05	0,63
Qorovulbozor	0,68	0,76	2,74	4,43	1,44	1,55
Peshku	0,84	1,02	3,46	2,21	0,08	0,88
Romitan	1,32	1,20	4,59	1,58	0,07	0,95
Jondor	1,26	1,10	3,09	0,16	0,03	0,47
Shofirkon	1,24	1,45	4,10	0,06	0,03	0,41

1-jadval natijalari umumlashtirilib, Buxoro viloyatining investitsion salohiyatining umumiy ko'rsatkichlar dinamikasini ishlab chiqdik. Quyida uning diogrammasi keltirilgan. (1-rasm)



1-rasm. Buxoro viloyati investitsion salohiyatining umumiy ko'rsatkichlar dinamikasi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, Qorovulbozor tumani tabiiy geografik salohiyati, demografik holati va mehnat resurslari salohiyati, infratuzilma salohiyati, investitsion faoliyat salohiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat salohiyati bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan. Buxoro shahri, G'ijduvon tumani, Kogon tumani bu salohiyatlar bo'yicha 2-o'rinni, Romitan, Peshku, Buxoro, Vobkent, Qorakul tumanlari 3-o'rinni, Olot, Jondor, Shofirkon tumanlari va Kogon shahri oxirgi o'rinlarni egallagan. Tabiiy geografik salohiyati bo'yicha Vobkent, Buxoro, Kogon, Romitan, G'ijduvon tumanlarining imkoniyatlari yuqori, mehnat resurslari salohiyati bo'yicha Buxoro shahri va G'ijduvon tumanining imkoniyatlari yuqori, infratuzilma salohiyati bo'yicha Buxoro shahri, investitsion faoliyat va tashqi iqtisodiy faoliyat salohiyatlari bo'yicha Qoravulbozor tumani yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin.



2-bosqichda Buxoro viloyati shahar(tuman)larining qaysi tarmoqlar bo'yicha investitsion salohiyati yuqori yoki pastligini ko'rib chiqamiz. Bunda shahar(tuman)larining sanoat ishlab chiqarish salohiyati, xizmatlar sohasining salohiyati, agrar sohasining salohiyati, turizm sohasining salohiyati, innovatsion faoliyat salohiyatlari tahlil qilinadi. Buxoro viloyatining tarmoqlari investitsion salohiyati ko'rsatkichlari 2-formula asosida hisoblandi va uning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

$$IS_t = \sqrt[n]{IS_6 * IS_7 * IS_8 * IS_9 * IS_{10}} \quad (2)$$

Bu verda IS_t - tarmoq investitsion salohiyati;

$IS_6 - IS_6$ - hududning sanoat ishlab chiqarish salohiyati,

$IS_7 - IS_7$ - hududning xizmatlar sohasidagi salohiyati,

$IS_8 - IS_8$ - hududning agrar sohasidagi salohiyati,


$IS_9 - IS_9$ - hududning turizm sohasidagi salohiyati,

$IS_{10} - IS_{10}$ - hududning innovatsion faoliyat salohiyati

2-jadval. Buxoro viloyati tarmoqlarining investitsion salohiyati ko'rsatkichlari.

Shahar va tumanlar	(IS_6)	(IS_7)	(IS_8)	(IS_9)	(IS_{10})	IS_t
Buxoro sh.	0,7871	3,1651	0,1368	0,6376	0,1990	0,53
Kogon sh.	0,3140	0,6537	0,1349	0,0172	0,0205	0,10
tumanlar:						
Olot	0,1614	0,4507	1,3319	0,0133	0,4919	0,23
Buxoro	0,2137	0,5466	1,5356	0,0234	0,0102	0,13
Vobkent	0,3545	0,7190	1,3873	0,0335	0,0000	0,33
G'ijduvon	0,5427	0,9536	1,2460	0,0533	0,0631	0,29
Kogon	0,6597	0,5153	1,4811	0,0297	0,0271	0,21
Qorako'l	0,3921	0,4665	1,4144	0,0127	0,0102	0,13
Qorovulbozor	1,4257	0,6420	1,2553	0,0055	0,0145	0,16
Peshku	0,2279	0,6673	1,6513	0,0147	0,0102	0,13
Romitan	0,2797	0,6349	1,7130	0,0409	0,0971	0,26
Jondor	0,2464	0,5529	1,8738	0,0445	0,0000	0,33
Shofirkon	0,2263	0,4563	1,2833	0,0236	0,0000	0,24

2-jadval natijalarini umumlashtirilib, Buxoro viloyati tarmoqlarining investitsion salohiyati ko'rsatkichlari dinamikasini ishlab chiqdik. Quyidagi uning diagrammasi keltirilgan. (2-rasm)



2-rasm. Buxoro viloyati tarmoqlarining investitsion salohiyati ko'rsatkichlari dinamikasi.



2-rasmdan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyatining tarmoqlari investitsion salohiyati bo'yicha Buxoro shahri yetakchi o'rinda, Vobkent, Jondor, G'ijduvon, Romitan tumanlari 2-o'rinda, Shofirkon, Olot, Kogon, Qorabulbozor tumanlari 3-o'rinda va oxirgi o'rinlarda Buxoro, Peshku, Qorako'l hamda Kogon shahri egallagan.

Alohida har bir tarmoq bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan hududlar quyidagilardan iborat:

- sanoat ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha Qorabulbozor tumani, Buxoro shahri, Kogon va G'ijduvon tumanlari,
- xizmatlar sohasining salohiyati bo'yicha Buxoro sh, G'ijduvon, Vobkent, Peshku tumanlari
- agrar sohasining salohiyati bo'yicha Jondor, Romitan, Peshku, Buxoro, Kogon tumanlari
- turizm sohasining salohiyati bo'yicha Buxoro sh, G'ijduvon, Jondor tumanlari
- innovatsion faoliyat salohiyati bo'yicha innovatsiyalarni fermer xo'jaliklarida qo'llanishi yuqori darajada bo'lganligi sababli Olot yetakchi o'rinda va texnologik innovatsiya bo'yicha Buxoro shahri yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda.
- Tarmoqlar bo'yicha eng past ko'rsatkichlarni ko'rsatayotgan hududlar quyidagilardan iborat:
- sanoat ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha Peshku, Shofirkon, Buxoro va Olot tumanlari
- xizmatlar sohasining salohiyati bo'yicha Qorako'l, Shofirkon, Olot
- agrar sohasining salohiyati bo'yicha Buxoro va Kogon shaharlari.
- turizm sohasining salohiyati bo'yicha Buxoro, Kogon shahri. Peshku, Olot, Qorako'l, Qorabulbozor tumanlari
- innovatsion faoliyat salohiyati bo'yicha Vobkent, Jondor, Shofirkon tumanlari eng past ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda.

Buxoro viloyatiga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan mahalliy va xorijiy investorlar hudud haqida umumiy xulosaga ega bo'lishi uchun hududning investitsion salohiyati bilan bir qatorda uning investitsion xavflarini o'rganadi. Investitsion xavf ko'rsatkichlari har bir shahar(tuman) bo'yicha qanday xavf darajasi borligi haqida ma'lumot beradi (3-jadval).

3-bosqichda 3-jadval ko'rsatkichlari natijalariga ko'ra, shahar(tuman)ning iqtisodiy, moliyaviy, jinoiy va ekologik xavflari aniqlandi hamda 3-formulaga asoslanib, umumlashtirildi:

$$IX = \frac{\sqrt[n]{IX_1 * IX_2 * \dots * IX_n}}{As} * 1000 \quad (3)$$

Bu yerda IX-investitsion xavf koeffitsiyenti; IX_1 - iqtisodiy xavflar, IX_2 -moliyaviy xavflar, IX_3 -jinoiy xavflar, IX_4 -ekologik xavflar. Bu formula orqali 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi xavf koeffitsiyenti topiladi.

$$SK = \frac{\sqrt[n]{IS_h * IS_t}}{As} * 1000 \quad (5)$$

3-jadval. Buxoro viloyatining investitsiya xavflari ko'rsatkichlari.

Shahar va tumanlar	(IX ₁)	(IX ₂)	(IX ₃)	(IX ₄)	IX
Buxoro sh.	26,08	0,00005	24,48	0,1046	0,2358
Kogon sh.	38,07	0,0795	17,73	0,0077	0,8020
tumanlar:					
Olot	30,32	0,0629	8,85	0,2591	1,4465
Buxoro	23,95	0,00005	9,95	0,00003	0,0243
Vobkent	23,18	0,00002	7,75	0,0006	0,0392
G'ijduvon	28,77	0,00004	8,77	0,0031	0,0740
Kogon	28,51	0,0001	12,95	0,1684	0,2541
Qorako'l	33,73	0,0262	7,49	0,0008	0,2719
Qorabulbozor	12,83	0,0367	30,27	0,2336	1,3505
Peshku	29,01	0,0401	7,68	0,0002	0,1985
Romitan	25,47	0,00002	7,05	0,2197	0,1615
Jondor	30,59	0,00002	7,63	0,0016	0,0524
Shofirkon	32,45	0,0557	7,54	0,0005	0,2912



Tahlil shuni ko'rsatadiki, Qorovulbozor tumani yuqori xavf darajasida, Olot tumani va Kogon shahri o'rtacha xavf darajasida, Kogon, Qorako'l, Shofirkon, Peshku, Romitan tumanlari kichik xavf darajasida, Jondor, Vobkent, G'ijduvon, Buxoro tumanlari va Buxoro shahri minimal xavf darajasidadir.

4-bosqichda barcha yuqoridagi ko'rsatkichlaridan foydalanib, 4-formula asosida salohiyat koeffitsiyenti aniqlandi.

$$SK = \frac{\sqrt[n]{IS_h \times IS_t}}{A_s} * 1000 \quad (4)$$

Bu yerda SK-salohiyat koeffitsiyenti, IS_h -hudud investitsion salohiyati, IS_t -tarmoqlar investitsion salohiyati, A_s -aholi soni.

Bunda har 1000 nafar aholiga nisbatan hisoblangan salohiyat koeffitsiyenti Qorovulbozor tumanida eng yuqori o'rinda, 2-o'rin Kogon, 3-o'rin Vobkent, 4-o'rin Olot, 5-o'rin Romitan, 6-o'rin Kogon sh, 7-o'rin Buxoro sh, 8-o'rin Peshku, 9-o'rin Jondor, 10-o'rin Buxoro, 11-o'rin G'ijduvon, 12-o'rin Shofirkon, 13-o'rin Qorako'l tumani egallagan. Bu usulda hisoblashning afzal tomoni shundan iboratki, hudud salohiyatining yuqori darajada bo'lishi, hudud aholisining ko'pligi bilan bog'liq. Chunki aholi soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha boshqa barcha ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi. Shuni inobatga olib salohiyat ko'rsatkichlari aholi soniga bo'lindi va hisoblaganda aniq koeffitsiyent shakllantildi.

5-bosqichda yuqoridagi hisob-kitoblar natijalaridan kelib chiqib, 5-formulaga asosan

$$IJI = \frac{SK}{IX} \quad (5)$$

Buxoro viloyati shahar va tumanlarining investitsion jozibadorligi indeksi hisoblandi. Bu yerda IJI-investitsion jozibadorlik indeksi, SK-salohiyat koeffitsiyenti, IX-investitsion xavf koeffitsiyenti (4-jadval). Indeksning ahamiyatli tomoni shundaki, bir birlik xavfga qancha salohiyat to'g'ri kelishi aniqlanadi.

4-jadval. Buxoro viloyati shahar va tumanlarining investitsion jozibadorligi indeksi.

Buxoro sh.	257,03600	yuqori jozibador hudud	
Buxoro	14,08083	o'rtacha yuqori jozibador hudud	
Vobkent	12,66070	o'rtacha yuqori jozibador hudud	
G'ijduvon	7,74646	o'rtacha yuqori jozibador hudud	
Jondor	7,47358	o'rtacha yuqori jozibador hudud	
Romitan	3,07893	o'rtacha past jozibador hudud	
Kogon	1,80754	o'rtacha past jozibador hudud	
Peshku	1,70403	o'rtacha past jozibador hudud	
Shofirkon	1,06505	o'rtacha past jozibador hudud	
Qorako'l	1,04145	o'rtacha past jozibador hudud	
Qorovulbozor	0,36460	past jozibador hudud	
Kogon sh.	0,23737	past jozibador hudud	
Olot	0,23726	past jozibador hudud	

Yuqoridagi hisob-kitob natijalariga asosan shuni aytish mumkinki, Buxoro shahri kichik salohiyatga ega bo'lsada, minimal xavf darajasi borligi uchun indeksda yuqori jozibador hudud o'rini egalladi. Buxoro, Vobkent, G'ijduvon va Jondor tumanlari o'rtacha yuqori jozibador hududlar, Romitan, Kogon, Peshku, Shofirkon, Qorako'l tumanlari o'rtacha past jozibador hududlar, Qorovulbozor tumani, Kogon shahri va Olot tumani past jozibador hududlar toifalariga ajratildi. Qorovulbozor tumani yuqori salohiyatga ega bo'lsada, xavf darajasi yuqori, shuning uchun indeksdagi o'rni ham pastdir. Bu shundan dalolat beradiki, birgina salohiyati yuqori bo'lgan hududlar investorlarni jalb qila olmaydi, chunki investorga hududdagi investitsion xavflar ham to'sqinlik qiladi. Tahlillar investitsion xavflarni kamaytirish yo'llarini va chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarning investitsion jozibadorligining baholash usullarini qiyosiy tahlil qilish va hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, taklif qilinayotgan investitsiya jozibadorligini baholash indeksi masofadan turib baholash asosida shahar (tuman)larni saralashga yordam beradi, algoritmning soddaligi va axborot bazasining shaffofligi tufayli har qanday investor uchun tezkor baholashi mumkin. Shahar (tuman)ning investitsion jozibadorligi muammolarini yanada o'rganish sanoat tafsilotlari bilan bog'liq, bu Buxoro viloyatining tarmoqlar salohiyatini baholash tajribasini aks ettiradi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining hududlarni moliyalashtirish tartibini takomillash-tirish uchun investitsiya salohiyatining diagnostikasini rivojlantirishga qaratilgan.

Investitsion jozibadorlik indeksi ma'lum bir hududning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Bu iqtisodiy o'sishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va aholi hayotini yaxshilashga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, investitsiya sharoitidagi o'zgarishlarni kuza-tish va tegishli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Investitsion jozibadorlik indeksi investorlar o'z loyihalarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan sharoitlarni baholashda muhim rol o'ynaydi. Ular ushbu shartlar investitsiya maqsadlariga qanchalik mos kelishini aniqlashga yordam beradi va mavjud salohiyatni rivojlantirish hamda kengaytirish imkoniyatlari haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, indeks ma'lum hududning salohiyati va xavflarini baholashga yordam beradi. Ushbu baholash usuli investitsiya jozibadorligiga ta'sir qiluvchi turli omillarni va ma'lumotlarning keng doirasini hisobga olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акрамова О. К. Model for assessing the investment attractiveness of regions //Современные инновации, системы и технологии-Modern Innovations, Systems and Technologies. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 0257-0264.
2. Акрамова О. К. Improvement of assessment system of investment attractiveness of regions //Информатика. Экономика. Управление-Informatics. Economics. Management. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 0115-0125.
3. Akramova O.K. Ensuring investment security as an autonomous factor in increasing investment attractiveness. Infor-matics. Economics. Management. 2022; 1(2): 0208-0216. <https://doi.org>
4. Ochilov Sh.B., Boboyev A.Ch., Akramova O.K. Ways to increase the investment attractiveness of regions by reducing investment risks in agriculture. Informatics. Economics. Management. 2024; 3(1): 0401-0410. <https://doi.org>
5. Бланк И. А. Основы инвестиционного менеджмента: В 2 т. – К., 2001.
6. Aleksenko I.I., Gres M.S. Uzagalnennyya teoretiko-metodichnix pidxodiv do otsinki investitsiynoi privablivosti pidpriemstva// Yekonomika i suspilstvo. – 2017. Vipusk No 9. – S. 952-955. URL: <http://www.economyandsociety.in.ua>
7. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh.. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –2017-y. 45.
8. Rasulova N.N. & Jumayeva Z.K. (2019). Uzbekistan oil and gas industry: history and development prospects. Теория и практика современной науки, (5 (47)), 52-57.



MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi	4
Sadoqat Siddiqova	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов	9
Юлдашев Норбек Худайназарович	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi	19
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilish	24
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
Ядгаров Ўктам Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices	37
Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development	44
Jafarova Khilola Khalimovna	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлочного переплетения	48
Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины	53
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли	
Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna	
Kislorodli birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish	66
Saloydinov Aziz Avazovich	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
Akramova Obida Qosimovna	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
Н.С.Бибуттов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов	
Туризм: типология и классификация.....	95
Малохат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Ruziyeva Gulinoz Fatilloevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari	114
Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinova, Niyozova Rano Najmiddinova, Axmedov Hafiz Ibroimovich	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети	127
Мухамадиева Зарина Баходировна	
Dizel moylarini reologik xossalari tatqiq qilish	132
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов	136
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush farovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati	141
Xayitov Sherbek Naimovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	148
Sayidova MaftunaHamroqul qizi	
Production of tomato paste	153
Ergasheva Muhabbat Komil kizi	
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions	156
Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna	
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari	159
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna	
Dual ta'limda keys texnologiyasini qo'llash	166
Sariyev Rustam Bobomuradovich	
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari	169
Jumayev Bahodir Raxmatullayevich	
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli	174
Tursunova F. J., G. R. Bozorov	
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar)	180
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari	185
Kudratov Muhammad Rustamovich	
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish	190
Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li	
Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rne	194
Jafarova Hilola Xalimovna	
Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'pik so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi	198
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili	207
Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich	
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish	213
Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	217
Buxoro viloyatida kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish yo'nalishida hududlar kesimida mavjud imkoniyatlar tahlili	223
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Neft va gaz sanoati chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini tahlili	229
Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Uzakbaev Kamal Axmet uli, O'rinov Xurshid Xayridin o'g'li	
Blokcheyn tizimlarida kriptografik kalitlar uchun tasodifiy sonlarni generatsiyalovchi SuperCSPRNG algoritmi	235
Nurullayev Mirxon Muhammadovich	
"Yashil" energetikaning o'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini baholash va ularni tahlil qilish	241
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, A.Y. Baqoyev	
Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari	247
Xakkulov Eldar Xudoyberdiyevich	
Chiqindi gazlarni changli qo'shimchalardan tozalash	251
Rayimov Zuhridin Xayridin o'g'li, Sattorova Gulnoza Tuymurodovna, Jamilova Niginabonu Qobil qizi, Qudratov Oston Hayrulla o'g'li	



Kremniyorganik polimer kompozitsiyalar asosida termobarqaror bo'yoq olish imkoniyatlari.....	255
Xoliqova Gulhayo Qo'ldoshevna, Raximov Firuz Fazlidinovich, Nurilloev Zafar Ismatilloevich	
Korroziya ingibitorlarini neft va gaz quduqlariga samarali qo'llash	260
Atoyev Extiyor Xudoyorovich, Jo'rayeva Dilsora Shodmonovna	
Qo'ndirmali transformator moylarining kolloid barqarorligini baxolash	264
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Raximov Zaxriddin Zafar O'g'li	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini baholash	270
Akramova Obida Qosimovna	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.